

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Filologiya fakulteti dekani

Q.R.To‘xsanov _____

« ____ » _____ 2023-y.

ADIZOVA NILUFAR ISTAMOVNA

**MUSTAQIL TA‘LIM:
KO‘RSATMALAR**

(Og`zaki va yozma nutqni rivojlantirish fanidan)

Bilim sohasi: 200000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi: 230000 – Tillar
Ta’lim yo`nalishi: 60230100– Filologiya va tillarni o`qitish (o‘zbek tili)

Mazkur metodik ko'rsatma O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasining 2023-yil 26-avgustdagi yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

Talabaning mustaqil ishi muayyan fandan o'quv dasturida belgilangan bilim, malaka va ko'nikmaning ma'lum bir qismini ta'lim oluvchi tomonidan fan o'qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya hamda auditoriyadan tashqari o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatdir.

Zero, O'zbekiston Respublikasining ta'lim sohasida olib borayotgan siyosati, jumladan, oliy ta'limda yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ega bo'lgan, ijodiy va ijtimoiy faol, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil holda harakat qila oladigan, kelajakka qaratilgan vazifalarni qo'ya olish va ularni yechishga qodir bo'lgan kadrlarning yangi avlodini shakllantirish talabini qo'ymoqdaki, bu oliy ta'lim tizimida mustaqil o'qib-izlanish faoliyatiga alohida e'tiborni talab etadi.

Mazkur ko'rsatmalar Filologiya va tillarni o'qitish (o'zbek tili) yo'nalishida ta'lim oluvchi talabalarga mo'ljallangan bo'lib, talaba mustaqil ta'limining maqsadi ro'yobini ta'minlash yo'lidagi kichik dasturilamaldir.

Mas'ul muharrir:

Pedagogika fanlari nomzodi,
professor D.N. Yuldasheva.

Taqrizchilar:

Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent **Axmedov A.R.**

Filologiya fanlari nomzodi,
dotsent **Asadov T.H.**

KIRISH

Istalgan jamiyatning rivojlanish va yuksalish yo‘li talab etganidek, respublikamizning taraqqiyotida bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh malakali mutaxassislariga ehtiyoj seziladi. Vaholanki, jahon miqyosida o‘z sohadoshlari bilan bo‘ylasha oladigan, intellektual salohiyatli mutaxassisni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, jamiyat taraqqiyotida mutaxassis kadrlar tayyorlash omilining muhimligi isbot talab etmaydigan hayotiy haqiqatdir. O‘zbekiston Respublikasining ta‘lim sohasida yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlash, uning kasbiy sifat va samaradorligini oshirish borasida XXI asrning ikkinchi o‘n yilligida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. Jumladan, tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxassisning shuurida istalgan masala, mohiyat yuzasidan mustaqil, erkin mulohaza yurita olish; ijodiy tafakkur sohibi bo‘lish, tadbirkor, faollikni odatiga aylantirish, ezgu xislatlarni tarkib toptirish zarur. Oliy ta‘lim tizimiga oid muhim hujjatlarda ta‘kidlanganidek: “...o‘qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish hamda distansion ta‘lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o‘zlashtirish”¹, kundalik yumushlarimiz sirasiga kirishi kerak.

Vaholanki, mustaqillik nafaqat o‘zbek xalqiga, balki dunyoning boshqa mintaqalarida yashovchi xalqlarga O‘zbekiston xalqi bilan ijtimoiy hayotning turli sohalarida, jumladan diplomatik, iqtisodiy va ilmiy sohalarida hamkorlik qilishlariga sharoit yaratib berdi. «Hozirgi kunda o‘zbek tili hayotimizning barcha jabhalarida – davlat va jamiyat boshqaruvi, davlatlararo munosabatlar, ilm-fan, ta‘lim-tarbiya, tibbiyot, madaniyat va san‘at sohalarida faol qo‘llanilmoqda, xalqaro minbarlardan baralla yangramoqda»²ki, bu til mutaxassislari zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Bu mas‘uliyatni his etish va belgilangan vazifalarni ado etish uchun ham bo‘lajak til mutaxassislarning o‘z ustida muntazam ishlashlariga diqqat qaratish muhim.

¹ Oliy ta‘lim tizimida Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bo‘yicha malaka talablari. Toshkent, 2017.

² uza.uz. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги ПҚ-4479-сон Қарори.

Yuqorida aytilganlar ta'lim-tarbiya jarayonida mustaqil ta'limga bo'lajak mutaxassis kadrlarning amaliy tayyorgarlik sifati va samaradorligini oshirish omili sifatida qarashni taqozo etadi. Pedagogik ta'limga fan va texnologiyalar yutuqlarining jadal sur'atlar bilan kirib kelishi yuqori malakali ijodkor mutaxassislarning yetishmasligini ko'rsatmoqda. Hozirgi zamonda fan va texnologiya taraqqiyoti talablaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zamonaviy mutaxassis yuqori darajadagi malaka, yangi va tez o'zgarib turgan texnologiyani tushuna bilish xususiyatlariga ega bo'lmog'i lozim.

Bugungi kun talabiga ko'ra, har bir yosh mutaxassis kadr ijodiy fikrlaydigan, tinimsiz izlanadigan, boy tasavvurga ega bo'lmog'i lozim. Zotan, har bir bo'lajak mutaxassis kasbiy mahorat, bilimga ega bo'lishi bilan birga zamonaviy texnologiyalardan ham yuqori darajada foydlana olishlari shart.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, faqat oliy ta'lim professor-o'qituvchisining bergan ma'lumotlari bilan kifoyalanish talabanning sotsial, axloqiy, psixologik, tabiiy, ilmiy, pedagogik, texnologik, fiziologik, ekologik, huquqiy, estetik, badiiy, umummadaniy, informatsion va h.k. jihatlarga yuksalishini to'liq ta'minlay olmaydi. Demak, talabanning mustaqil ta'lim olishiga ehtiyoj seziladi.

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan asosiy maqsad yuqori malakali, raqobatbardosh, mamlakatda o'tkazilayotgan demokratik va huquqiy islohotlarning yuqori talablariga, zamonaviy xalqaro standartlarga javob bera oladigan zamonaviy kadrlarni tayyorlash hamda talabalarda mustaqil ta'lim olish, ta'lim sifatini boshqargan holda filologik faoliyatning tegishli sohalarida tizimli tahlil qilish va boshqaruv ko'nikmalarini rivojlantirish, ularda professionallik layoqati (kompetentligi)ni tarbiyalash, talabalarning modullarni o'zlashtirishida bo'shliqlar hosil bo'lishining oldini olish, ularni aniqlash va bartaraf etishdan iborat.

Mazkur tavsiyalar o'zga tilli guruhlarda turli mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim oluvchi talabalar uchun mo'ljallangan bo'lib, talabalarning Davlat tili asosida bilim, malaka va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHNING SHAKLI VA MAZMUNI

Hozirgi vaqtda insonning ilmiy-amaliy tayyorgarlik saviyasi, tafakkur darajasi, intellektual salohiyati, ogʻzaki nutqi, savodxonlik darajasiga jiddiy eʼtibor qaratilayotgan bir paytda talabaga uy vazifasi berish va undan ijobiy natija kutish hamisha ham samara beravermaydi, kuchsizroq talaba uchun hatto bu zararli boʻlishi ham mumkin. Taʼlim oluvchida yetarli bilim zahirasi paydo qilmay turib, ularni yaratishga undasak, yo hech nima chiqmaydi, yoki topshiriqlar nari-beri “uddalanadi”.

Taʼlim oluvchilarning tashabbusi yoʻqdan paydo boʻlishi mumkin emas. Ularni yaratishga oʻrgatish, buning uchun ularda kerakli bilim va tajriba shakllanishi va rivojlanishi kerak³.

Mustaqil taʼlim – muayyan fandan oʻquv dasturida belgilangan hamda talaba tomonidan oʻzlashtirilishi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va malaka shakllantirishni, oʻzlashtirish darajasini amalga oshiriladigan taʼlim shakllaridan boʻlib, oʻqituvchi maslahati va tavsiyalari, bilimlar taqsimotiga tayyorgarligi asosida auditoriyadan tashqarida bajariladi. Talabalarga mustaqil ish(taʼlim)ni bajarish yuzasidan kafedra professor-oʻqituvchilari tomonidan metodik tavsiyalar beriladi. Fanning xususiyatidan kelib chiqib mustaqil taʼlim turlari – rang-barang va turli elektron koʻrinishlari – fan oʻqituvchisi tomonidan ishlab chiqiladi.

Mustaqil taʼlim fanni oʻzlashtirishga, mustaqil bilim olish va mehnat faoliyatiga yoʻnaltirilgan boʻlib, oʻquv materiallarini ishlab chiqish va ularni amalda tatbiq etish uchun muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun mustaqil taʼlim tizimi oʻquv materiallari talabalarning fanga tegishli faoliyat usuli boʻyicha nazariy maʼlumotlar bilan bir qatorda yetarli bilim va koʻnikmalarga ega boʻlishlari uchun turli xildagi, hajmdagi va murakkablikdagi topshiriqlarni qamrab olishi kerak.

Talaba mustaqil ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

1) yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta oʻzlashtirish koʻnikmalariga ega boʻlish;

³ Терский В.Н., Кель О.С. Игра. Творчество. Жизнь. – М.: Просвещение, 1986. С. 13.

2) kerakli ma`lumotlarni izlab topish, o`rganishning qulay usullari va vositalarini aniqlash;

3) axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;

4) o`quv va ilmiy adabiyotlar, me`yoriy hujjatlar bilan ishlash;

5) elektron o`quv adabiyotlar va ma`lumotlar banki bilan ishlash;

6) internet tarmog`idan maqsadli foydalanish;

7) berilgan topshiriqlarning ratsional yechimini belgilash;


8) ma`lumotlar bazasini tahlil etish;

9) topshiriqlarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;

10) o`quv adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni olib bilish;

11) amaliy mashg`ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish)larni bajarish va mustaqil ishlarni mas`ul o`qituvchi va guruh talabalari o`rtasida himoya qila bilish va h.

Buni quyidagi chizmada ifodalaymiz:



Talabalarning o`quv ijodiy tayyorgarlik tizimida mutaxassislik, ixtisoslik yoki umumkasbiy o`quv fanlaridan chuqur bilim va malakalarga ega bo`lishda mustaqil ta`lim olish ko`nikmalarining shakllanganligi asosiy rol o`ynaydi.

Mustaqil ta`lim olish ko`nikmalariga ularning o`quv adabiyotlari bilan mustaqil ishlash (ilmiy axborotlarni olib bilish va h.k), mustaqil

amaliy topshiriqlarni bajarish va bajargan mustaqil topshiriqni mas'ul o'qituvchi va guruhdoshlari oldida himoya qila bilish kabi bilim va malakalari kiradi.

Mustaqil ta'lim natijalari bo'lajak mutaxassisda zaruriy bilim, malaka, ko'nikmalar bilan bir qatorda quyidagi jihatlarni ham tarbiyalashi kerak:

1) *g'oyaviy (dunyoqarashi) yo'nalish*: g'oyaviy sobitlik; axloqiy va ma'naviy poklik; ijtimoiy majburiyat va fuqarolik mas'uliyati, ijtimoiy-siyosiy faollik;

2) *kasbiy yo'nalish*: kasbiy madaniyat- etika; ijodiy tafakkur; noan'anaviy, yangilikni qabul qilishga tayyorlik; fikrda qat'iylik.

3) *bilish (faoliyati) yo'nalishi*: ilmiy bilishga tashnalik va qiziqish; shaxsiy faollik; yangilikni oldindan sezish; mustaqil ta'lim olish faoliyatiga hamisha ehtiyojmandlik, mustaqil tafakkur.

Talabanning mustaqil ishini tashkil etishda ilmiy rahbarning vazifalari

Talabanning ilmiy rahbari ishga rahbarlik qilishda quyidagi vazifalarni bajarishi kerak:

–talaba ishini bajarishi uchun vazifani tasdiqlab berish;

–ishning rejasini tuzishda talabaga yordam berish va adabiyotlarni tavsiya etish;

–talabanning rejasini tasdiqlashi, reja bo'yicha muntazam ravishda ishini tekshirishi, maslahatlar va ko'rsatmalar berishi;

–talaba ishini bajarishda tashkiliy va uslubiy yo'nalishlar berib borishi;

–talaba bilan munosabatda muntazam gumanistik ruhni saqlash va unda o'qishga, uqishga ehtiyoj uyg'ota olish.

Talabanning mustaqil ishini tashkil etishda talabanning vazifalari

Talaba mustaqil ishini bajarish jarayonida quyidagilarni bajarishi zarur:

–ishning mavzusini kafedraning talablaridan kelib chiqqan holda tanlash;

–ilmiy rahbarning tuzib bergan reja asosida berilgan topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;

–o‘rnatilgan tartib bo‘yicha mustaqil ishning hisobini o‘z vaqtida ilmiy rahbar (kafedra)ga taqdim etish.

Talabaning mustaqil ishini nazorat qilish kafedrada ishlab chiqilgan jadval va fanning texnologik xaritasi asosida olib boruvchi professor-o‘qituvchi tomonidan amalga oshiriladi. Talaba mustaqil ishning nazorat qilish turlari va uni baholash mezonlari ishlab chiqiladi va fakultet ilmiy kengashida tasdiqlanadi.

Talaba mustaqil ishining tashkiliy shakllari

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi asoslarini o‘zlashtirish va talabaning ijodiy tayyorgarligi e‘tiborga olinadi.

Talabalarning ijodiy tayyorgarligi – uning kasbiy layoqatliligining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, uzluksiz ta‘lim olish asosida shakllanadi. Zero, “...uzluksiz mustaqil ta‘lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma‘naviy yetuk shaxsni shakllantirish, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga zaruriy shart-sharoit yaratadi”⁴.

Tabiiyki, mazkur muammoning optimal yechimi ularni mustaqil ta‘lim olish faoliyatiga yo‘naltirish, ularning mustaqil ta‘lim olish faoliyatini faollashtirishdir.

Zero, yuqorida sanab o‘tgan o‘quv fanlarini chuqur o‘zlashtirishda talabalarning ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarda berilgan ilmiy axborotlar sig‘imini kengaytirishi va mustahkamlashda mustaqil ta‘lim olish asosiy rol o‘ynaydi.

Demak, talabalarning mustaqil ta‘lim olish faoliyatini o‘quv adabiyotlaridan mustaqil holda ilmiy axborotlarni o‘qib bilish, amaliy mashg‘ulotlarda mustaqil bajarish uchun berilgan amaliy topshiriq (mustaqil ish)larni bajarish va mustaqil ishlarni mas‘ul o‘qituvchi va guruh talabalari o‘rtasida himoya qila bilish tashkil etadi.

Zero, talabaning mustaqil ta‘lim natijasida tayyorlagan mustaqil ishi muayyan fandan o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma‘lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi

⁴ Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: Теоретико-экспериментальное исследование. – М.: Педагогика, 1980. –С.88.

maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqari o'zlashtirilishiga yo'naltirilgan tizimli faoliyatidir.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda fan o'qituvchisining roli beqiyos. Chunki har bir professor-o'qituvchi dastlab talabada o'z qobiliyati va aqliy imkoniyatlariga ishonch uyg'otishi, ularni sabr-toqat bilan, bosqichma-bosqich mustaqil bilim olishini to'g'ri tashkil qilishga o'rgatib borishi zarur bo'ladi. Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o'zlashtiriladigan bilim va ko'nikmalarning kursdan kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligini oshirib borishi zarur. Shunda mustaqil ta'limga ko'nika boshlagan talaba faqat o'qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o'zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o'zi uchun zurur deb hisoblagan qo'shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda saralab o'zlashtirishga o'rganib boradi.

Mustaqil ta'limning shakliga ko'ra turlari

Turli ixtisosliklar bo'yicha o'zga tilli guruhlarda tahsil oluvchi talabalar uchun o'zbek tili fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda, uning shakli va hajmini belgilashda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratilishi lozim:

–o'qish bosqichi;

–fanning o'ziga xos xususiyati va o'zlashtirishdagi qiyinchilik darajasi;

–talabaning qobiliyati hamda nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasi (tayanch bilimi);

–fanning axborot manbalari bilan ta'minlanganlik darajasi;

–talabaning axborot manbalari bilan ishlay olish darajasi.

Mustaqil ishini tashkil etishda talabaning akademik o'zlashtirish darajasi va qobiliyatini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

1) fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash;

2) amaliy, seminar mashg'ulotlariga maxsus tayyorgarlik ko'rib kelish;

3) ma'lum mavzu bo'yicha referat tayyorlash;

- 4) kurs ishi (loyihalari)ni bajarish;
- 5) fanga oid muayyan mavzu yuzasidan materiallar to'plash;
- 6) badiiy, publisistik asar tili ustida ishlash;
- 7) amaliyotdagi mavjud muammoning yechimini topish;
- 8) test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash;
- 9) ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash;
- 10) muayyan mavzular yuzasidan nostandart topshiriqlar tayyorlash;
- 11) muayyan mavzular mag'zini slaydlarda aks ettirish;
- 12) fan atamalariga doir kichik izohli lug'at tuzish;
- 13) muayyan matn tarkibi yuzasidan grammatik tahlilni amalga oshirish;
- 14) metodik xarakterdagi dars ishlanmalari tayyorlash;
- 15) uy vazifalarini bajarish va boshqalar;

Mavzuni mustaqil o'zlashtirish

Fanning xususiyati, talabalarning bilim darajasi va qobiliyatiga qarab ishchi o'quv dasturiga kiritilgan alohida mavzular talabalarga mustaqil ravishda o'zlashtirish uchun topshiriladi. Bunda mavzuning asosiy mazmunini ifodalash va ochib berishga xizmat qiladigan tayanch tushunchalar, mavzuni tizimli bayon qilishga xizmat qiladigan o'rinlarga e'tibor qaratish, asosiy adabiyotlar va axbarot manbalarini ko'rsatish lozim.

Odatda, talabalar topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil ravishda o'quv adabiyotlaridan foydalanib mavzuni konspektlashtiradilar, tayanch tushunchalarni anglagan holda mavzuga taalluqli atamalarga alohida ahamiyat beradilar. (Bunda muayyan o'rinlarning belgilangan adabiyotlardan aynan ko'chirilmasligiga, mohiyatni talaba o'z tushunganlari asosida yorita olishiga e'tibor beriladi.)

Fanning ayrim mavzularini o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish, o'quv manbalari bilan ishlash topshirig'i ijrosini fan o'qituvchisi imkon qadar og'zaki savol-javob bilan mustahkamlasa, bu talabaning tafakkur dunyosini yoritishi aniq.

Amaliy, seminar mashg'ulotlariga maxsus tayyorgarlik ko'rish

Amaliy, seminar mashg'ulotlariga maxsus tayyorgarlik ko'rib kelish ham mustaqil ta'limning alohida ko'rinishi bo'lib, bunda talabaning

mustaqil holda o'rganganlari amaliy jihatdan mustahkamlanadi. Masalan, "Og`zaki va yozma nutqni rivojlantirish" fanidan 4-bosqich talabasi quyidagi kabi topshiriqlarni bajarishi mumkin:

Mavzu: Og`zaki nutqni mukammallashtirish usullari. So`zlashuv uslubining o`ziga xos xususiyatlari.

Savol va topshiriqlar:

1. Nutq uslublari haqida nimalarni bilasiz?
2. Nutq uslubi nima?
3. O`zbek tilida qanday nutq uslublari mavjud?
4. So`zlashuv uslubining turlari haqida ma`lumot bering.
5. Adabiy so`zlashuv uslubining xususiyatlari haqida gapiring.
6. Rasmiy uslub boshqa uslublardan qanday xususiyatlari bilan farqlanadi?
7. Ilmiy uslubning qanday turlari mavjud?

Quyidagi topshiriqlarni mustaqil bajaring.

1-topshiriq. Abdulhamid Cho`lponning «Kecha va kunduz» romanidan olingan quyidagi parchani o`qing. Og`zaki so`zlashuv uslubiga xos o`rinlarni topib, izohlang.

So`fi yana past toifa oldida muborak og`zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo`ldi:

– Badbaxt fitna! Qo`yasanmi-qo`ymaysanmi, axir?!

«Hubbuli vatani minal imon» deganlar –Vatanni sevish imondan», axir! Bilmasang, bekor-da! Vatani yo`q –dunyoda lo`li xolos. Meni bevatan deb bildingmi?

So`fi biroz qizib ham ketdi.

–Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o`zimmniki deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, o`risvoyning religa tushib, «hayt» deb... Makkatilloga jo`nab qolaman. Hovling boshingdan qolsin, fitna!

Bu safar Qurvonbibi yalinib-yolvorib zo`rg`a tinchitdi.

Chinakam, so`fida hajga borish niyati kuchli. Har yili javraydi. Bir-ikki marta pasport oldi ham. Faqat, nima uchundir, oyog`ini o`z shahrining tuprog`idan uza olmaydi.

2-topshiriq. Gaplarni o`qing, og`zaki so`zlashuv uslubiga xos o`rinlarni izohlang.

Otasi yoki u tengi boshqa kishiga «paxan», «boboy», onalariga «babulya», «babushka», «kampirsho», aka-ukalariga nisbatan «brat», «bratan», «bratishka» deb murojaat qilayotgan noqobil farzandlarning bunday noxush so`zlari quloqqa og`ir eshitiladi. Ayrim hollarda esa ismlarning ruscha—hindcha shakllarda o`rinsiz qisqartirilib aytilishi ham yoqimsiz tuyuladi. Xayrishka, Masha, Borya, Gulya kabi. Ko`cha-ko`yda, avtobuslarda, o`quv dargohlarida «xey», «vey», «xov» deb yoki hushtak chalib chaqiradigan, yor-do`stlariga Baxti, Mamash, Alish deya murojaat qiladigan yoshlar ham uchrab turadi.

Bularning hammasi o`ta madaniyatsizlik, odob me`yorini bilmaslik sanaladi.

(A. Mirzaboboyev)

3-topshiriq. Til~nutq~tafakkur~uslub munosabati haqida o‘z fikrlaringizni misollar asosida bayon eting.

Ma’lum mavzu bo‘yicha referat tayyorlash

Talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan biror mavzu bo‘yicha referat tayyorlash topshiriladi. Bunda talaba asosiy adabiyotlardan tashqari qo‘shimcha adabiyotlardan (avtoreferatlar, monografiyalar, ilmiy, ilmiy-metodik maqolalar, internetdan olingan ma’lumotlar, elektron kutubxona materiallari va h.k.) foydalanib materiallar yig‘adi, tahlil qiladi, tizimga soladi va mavzu bo‘yicha imkon darajasida to‘liq, keng ma’lumot berishga harakat qiladi.

Referat – asosiy matn yoki bir necha manbalarni talqin qilish shakllaridan biri. Shuning uchun referat, konspektdan farqli ravishda, yangi, muallifning matni hisoblanadi. Bunday holdagi yangilik yangicha bayonni, materialning bir tizimga solinishi, har xil nuqtayi nazarlarni qiyoslashda muallifning alohida pozitsiyasini nazarda tutadi. Referatlash qandaydir masalaning bir yoki bir necha manbalarning tasniflanishi, umumlashtirilishi, tahlili va sintezi asosida bayon qilinishini nazarda tutadi.

Referatning o‘ziga xosligi shundaki, u keng miqyosli dalillar, qiyoslashlar, mushohadalar, baholarga ega bo‘lmaydi, ammo matnda qanday yangi, muhim jihat bor, degan savolga javob beradi. Referatning tuzilishi, asosan, 3 qismdan iborat bo‘ladi. Bular–

1) referat rejasi (kirish, asosiy qism, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar (referatning shart bo‘lmagan qismi – ilovalar) yoritiladi);

2) referat matni (mavzu; mavzu muammosi; referat qilinadigan ishning predmeti; maqsad va vazifalari; mazmuni; aniq natijalar; umumiy xulosalar; ish natijalari qo‘llaniladigan soha);

3) bibliografik bayon (yoki foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati)da (asar/maqola/tezis va h. muallifining familiyasi (to‘liq), ismi, otasining ismi (bosh harflari); asar nomi; nashr qilingan joyi; nashriyot nomi; nashr yili va sahifalar soni. (Agar maqola jurnalda (gazetada) bosilgan bo‘lsa, unda jurnal (gazeta) nomi, chiqqan yili, jurnal (gazeta) sahifasi raqami.)

Referatning rejasi tanlangan mavzuda ko‘rilishi lozim bo‘lgan masalalar doirasi va referatning asosiy mazmunini belgilaydi. U referatning mavzu materialida umumiy yo‘nalish olishga imkon beradi, uning to‘g‘ri tanlanishi va bayon qilish mantig‘ini ta‘minlaydi. Har bir bandi qat‘iy tanlangan material bilan ta‘minlangan, puxta o‘ylangan reja referatning muvaffaqiyatli yozilishining g‘oyat muhim sharti hisoblanadi.

Referatning asosiy qismi o‘zining lo‘nda va aniq nomiga ega masalalarga va kichik masalalarga (bandlarga) bo‘linishi zarur. Kirishda tanlangan mavzuning nazariy va amaliy jihatlardan dolzarbligi asoslanadi, referatni tayyorlash maqsadi va vazifalari ifodalanadi.

Referat matnidagi ko‘p ishlatiladigan iboralar va so‘z birikmalari quyidagilar:

“Ishda Tizim ko‘rib chiqiladi...”.

(Muallifning F.I.OI.) “.....” asarida ... berilgan.

“Kirishda ko‘rsatilishicha, ..”.

“Muallifning fikricha, ...”.

Muallif shunga asoslanadiki, Shu bilan birga u ... shunday deb hisoblaydi.

“1-bobda... masalasi yoritiladi”.

“2-bobda ... tadqiq qilinadi”.

“...haqida gapirganda, muallif ... deb ta‘kidlaydi”.

“Ishda, shuningdek ... ga e‘tibor qaratiladi”.

“Shunday qilib, muallif... degan xulosaga keladi”.

“ 3-bobda... tadqiq qilinadi, ... ko‘rib chiqiladi”.

“... zarurligi belgilanadi”.

“Xulosada muallif: “...” deb yozadi va h.

Material quruq bayon qilib berilmasligi kerak. Tegishli xulosalarga, shu jumladan, matn bilan chambarchas bog‘lanadigan statistik materialga ega tahlil zarur. Keng hajmdagi statistik ma‘lumotlarni jadvallarda yig‘ish maqsadga muvofiq. Statistik ma‘lumotlar asosida u yoki boshqa lisoniy-nutqiy hodisalar va jarayonlarni ancha yaqqol tasavvur etish hamda rivojlanish dinamikasida aks ettirishga imkon beradigan diagrammalar, grafiklarni ko‘rish ham mumkin.

Referatda keltiriladigan barcha jadvallar, diagrammalar, grafiklar, sxemalar sarlavhalanishi va raqamlanishi kerak. Statistik ma'lumotlar olingan manbalarning sarlavhalari ko'rsatilgani holda qayd qilinishi zarur.

Matnda beriladigan barcha raqamli materialning tegishli manbalari ko'rsatilishi kerak. Shuningdek, boshqa mualliflar asarlaridan olingan matndan ko'chirmalar, fikrlar, qoidalar, xulosalar so'zma-so'z ko'chirib olinganida ham ,albatta, satr ostida qaydlar berilishi zarur. Munozarali masalalar bo'yicha har xil nuqtai nazarlarning tahlili, qo'shiladigan yoki o'zining pozitsiyasining dalillanishi ham referatning afzalligi hisoblanadi.Referatning xulosasi referent tanlangan mavzuni o'rganish natijasida qilgan aniq ifodalangan xulosalarni, shuningdek hal etilmay qolgan va keyinchalik ishlab chiqishni talab qiladigan masalalarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati qat'iy belgilangan tartibda tuziladi:

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari.
3. O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari.
4. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar, yo'riqnomalar.
5. Ilmiy, metodik, publisistik, badiiy adabiyotlar, avtoreferat, dissertatsiya, davriy nashrlarda e'lon qilingan maqolalar, tezislar.
6. Xorijiy manbalar.
7. Internetdan olingan axborot manbalari.

Zarur hollarda o'qituvchidan maslahat va ko'rsatmalar oladi.

Ilmiy rahbarga taqdim etiladigan referat kompyuterda 12 yoki 14 shrift bilan, 1,5 interval orqali standart A 4 formatli qog'ozda, chap tomonidan 2,5 sm, o'ng tomonidan 1,5 sm, yuqorisi va pastidan kamida 2sm hoshiyalar bilan terilishi kerak. Matn sahifalari, albatta, raqamlanishi lozim. Ishning raqamlanishi uzluksiz bo'ladi va 3-sahifadan boshlanadi (birinchi va ikkinchi sahifalar –ishning titul varag'i va ish rejasi bo'lib, ular raqamlanmaydi). Sahifa raqami yuqorida o'rtaga yoki o'ng tomonga qo'yiladi.

Referat hajmi 16-20 sahifadan oshmasligi kerak. Shuningdek, referat

savodli tarzda yozilishi va toza ko‘rinishda bo‘lishi kerak. Umumiy qabul qilingan so‘zlardan boshqa so‘zlarning qisqartirilishiga, shuningdek, xatolar, noaniqliklar, uslubiy nuqsonlarga yo‘l qo‘yilmaydi. Referat ilmiy rahbarga taqdim etiladigan vaqtga kelib hamma jihatdan maromiga yetkazib ishlab chiqilgan bo‘lishi lozim.

Yakunlangan referat kafedrada ekspertlar ishtirokida himoya qilinadi.

Kurs ishi (loyihalari)ni bajarish

Bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari o‘quv jarayonining zarur elementi – mutaxassislik yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv rejada ko‘zda tutilgan asosiy fanlardan kurs ishlarini bajarish hisoblanadi va talabalarda ilmiy izlanishlar olib borish ko‘nikmalarini tarbiyalash, tanlangan mavzuni mustaqil ravishda chuqur o‘rganish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash, ilmiy, nazariy va amaliy xulosalarni shakllantirish va, pirovardida, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Kurs ishi ustida ishlash davomida talaba o‘quv jarayonida olgan nazariy bilimlari va mustaqil tadqiqot natijalarini yozma ravishda bayon qilish usuli, keltirilgan fikrlarning aniqligi, materiallarning joylashish ketma-ketligi, rasmiylashtirishga qo‘yiladigan umumqabul qilingan talablarni hisobga olgan holda bayon qilish tajribasiga ega bo‘lishi juda muhim. Bo‘lajak mutaxassis o‘z fikrlarini aniq va ravon bayon qila olishi, kiritayotgan takliflarini ilmiy va nazariy jihatdan asoslay bilishi, lingvistik terminlarni o‘z o‘rnida to‘g‘ri ishlata bilishi, kerakli ma‘lumotlarni to‘play olishi va qayta ishlay olishi, ularni atroflicha tahlil qilish va umumlashtirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak. Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda bajariladi va, ma‘lum ma‘noda, ilmiy izlanish olib borishning kichik bir shaklidir. Ayrim iqtidorli talabalar kurs ishini bajarish jarayonida birmuncha chuqur va keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib boradilar, ularning mustaqil ravishda bajargan kurs ishlari talabalar ilmiy to‘garaklarida, ilmiy konferensiyalarda va tanlovlarda ilmiy ma‘ruza qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kurs ishlarini bajarish va himoya qilish jarayoni quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

– kafedra tomonidan tavsiya etilgan kurs ishi mavzulari ro‘yxatidan mavzuni tanlash;

– tanlangan mavzu bo‘yicha dastlab adabiyotlar bilan tanishish;

– kurs ishi rejasini (mustaqil yoki ilmiy rahbar bilan birgalikda) tuzish;

– adabiyotlarni o‘rganish va zaruriy ma’lumotlarni to‘plash;

– kurs ishini yozish va rasmiylashtirish;

– kurs ishini uslub, imlo, faktik jihatdan tekshirish;

– kurs ishini kafedrada rasmiy himoya qilish.

Talabalarga tavsiya etiladigan kurs ishlari mavzulari fan dasturiga muvofiq tarzda kafedra tomonidan ishlab chiqiladi va kafedra yig‘ilishida ko‘rib chiqilib, yig‘ilish bayonnomasi bilan tasdiqlanadi. Talabaga ayrim hollarda kurs ishiga rahbar etib tayinlangan professor-o‘qituvchi va kafedra mudiri bilan kelishilgan holda, kurs ishi mavzulari ro‘yxatiga kirmagan mavzuni (bunga asos bo‘lsa) tanlashi mumkin.

Kurs ishi (loyihalari)ni bajarish tartibi ham referat tayyorlash shakliga mos keladi. Faqat kurs ishida mavzu mohiyati kengroq yoritiladi. Shu bois kurs ishi hajmi 25-30 sahifani tashkil etadi.

Kurs ishini himoya qilish jarayoni talaba uchun eng muhim bosqich hisoblanadi. Unda talabaning kurs ishi mavzusi bo‘yicha to‘plagan bilimlari sinaladi. Talaba o‘z ishini yaxshi bilishi, to‘plagan ma’lumotlarining manbalarini aniq ko‘rsata olishi, tahlil usullarini tushuntirib berishi, nazariy va amaliy savollarga javob bera olishi lozim. Yozib tugatilgan kurs ishi kafedra tomonidan belgilangan muddat ichida kafedrada ro‘yxatga olish yo‘li bilan qayd etilgandan so‘ng, tanishib chiqish va taqriz berish uchun kurs ishi rahbariga (yoki pedagog-xodimlarning o‘quv yuklamasi doirasida boshqa o‘qituvchiga) beriladi.

Kurs ishiga yozilgan taqrizda quyidagilar inobatga olinadi:

a) kurs ishi mavzusining dolzarbligi va o‘rganish zarurati;

b) o‘rganilganlik darajasi va kurs ishining o‘rganilgan ishlardan farqli tomoni;

d) ishning nazariy saviyasi va ilmiylik darajasi;

e) zaruriy adabiyotlardan to‘plangan materiallarni mustaqil izlanishlar asosida mantiqiy izchillikda bayon qilinganligi;

f) muallifning ishda keltirilgan raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish qobiliyati, xulosalarni bayon qilish saviyasi;

g) mavzu yuzasidan amaliy tavsiyalarning mavjudligi va asosliligi;

h) kurs ishi himoyasi uchun kafedraning yakuniy xulosasi ("himoyaga ruxsat berildi" yoki "himoyaga ruxsat berilmadi" shaklida).

Kurs ishi himoyasi kafedrada tashkil etiladi. Bu maqsadda fan bo'yicha kurs ishi himoyasi uchun 3 kishidan kam bo'lmagan tarkibda komissiya tuziladi. Kurs ishini talaba maxsus tuzilgan komissiya huzurida himoya qiladi. Komissiya a'zolari bilan talaba o'rtasidagi suhbat asosida talabanning bilim darajasi, mavzu ustida ishlash jarayonida orttirgan ko'nikmalari aniqlanadi. Dastavval talaba o'zi yozgan ishi bo'yicha uning mazmuni, o'rganish predmeti, amaliy ma'lumotlarning manbasi, ularni umumlashtirish usullari, asosiy xulosalarini qisqacha yoritib beradi. So'ngra taqrizda ko'rsatilgan kamchiliklar bo'yicha hamda ish yuzasidan qo'shimcha savol-javoblar asosida talabanning bilimlari tekshiriladi va himoya natijasiga ko'ra kurs ishi baholanadi. Kurs ishini baholash talabalar bilimni reyting tizimi asosida baholash tartibiga ko'ra ballarda amalga oshiriladi. Kurs ishining natijasi fakultet dekanati tomonidan taqdim etilgan qaydnoma varaqasiga tegishli tartibda qayd etiladi va komissiya a'zolari imzolari bilan rasmiylashtiriladi⁵.

Amaldagi 2018-yil 9-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom"ga muvofiq talabanning kurs ishi bo'yicha bilimni o'zlashtirish darajasi "5" baholik tizimda baholanadi. Jumladan,

talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **"100-90"** ball (**"a'lo"**);

talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **"89-70"** ball (**"yaxshi"**);

talaba olgan bilimni amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda – **"69-60"** (**"qoniqarli"**) baho;

⁵ Mamadiyorov O., Abduxalilova S. Kurs ishlarini bajarish yuzasidan uslubiy ko'rsatma. (Oliy ta'limning bakalavriat yo'nalishi 1-kurs talabalari uchun) –T.: Iqtisod-moliya, 2019 -33 b.

talaba fan dasturini o‘zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo‘yicha tasavvurga ega emas deb topilganda – **“59 va undan past”** ball (**“qoniqarsiz”**) bilan baholanadi.

Kurs ishi bo‘yicha **“59 va undan past”** ball (**“qoniqarsiz”**) ball bilan baholangan talaba akademik qarzidor hisoblanadi.

Fanga oid muayyan mavzu yuzasidan materiallar to‘plash

Fanga oid muayyan mavzu yuzasidan materiallar to‘plash uchun talaba, ko‘pincha, o‘quv adabiyotlari(darslik, o‘quv qo‘llanma)ga emas, balki matbuot materiallariga, mutaxassislik jurnallariga, ba‘zan ilmiy maqolalar to‘plamlariga, ilmiy-amaliy anjumanlarning materiallariga murojaat etadi. Sohaga oid so‘nggi qarashlar, tavsiyalar bilan tanishadi.

Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish fanini o‘qitish jarayoni, asosan, nutqiy ko‘nikmalar, savodxonlikni shakllantirishga qaratilgani bois, amaliy mashg‘ulotlarda hikoyalar, faktik maqolalar, matnlardan foydalanish ancha samarali kechadi. Mashg‘ulotlar jarayonida talaba mustaqil tayyorgarligi asosida faol ishtirokchiga aylanadi. Masalan, berilgan hikoya asosida grammatik topshiriqlar bajarish mumkin.

Mavzu: “Halollik – eng ulug‘ ne‘mat”

Qishloqda kuz pallasi tomsuvoq qilish udumi bo‘lardi. Uning yozilmagan qoidasi bor. Birinchidan, hech kim tomini yolg‘iz o‘zi suvamaydi: hamma hasharga keladi. Ikkinchidan, beva-bechora, qo‘li qisqa xonadonning uyi eng avval tomsuvoq qilinadi. Keyin navbatma-navbat davom etaveradi...

O‘qituvchimizning hashariga, ayniqsa, ko‘p odam yig‘ildi. Uyi katta yo‘l yoqasida edi. Shundoq ko‘cha chetidan loyxandaq qazilgan ekan. Somon katta yo‘lning ko‘pchib yotgan tuprog‘iga qovushib, obdon yumshabdi. O‘qituvchimizning Azim aka degan qo‘shnisi ishboshi bo‘ldi. Birov xandaqqa tushib loy solib berib turibdi, birov paqirlab loy tashiydi, yana birov tomda turib, ilgak bilan tortib oladi, boshqasi hafsala bilan suvaydi...

Erta peshindayoq hamma ishni qoyil qilib tashladik. Hovli o‘rtasidagi tut tagida ovqatlanib o‘tirsak, o‘qituvchining keksa onasi kelib qoldi. (Keyin eshitsak, bir hafta avval ko‘zi yorigan qizinikiga ketgan ekan.) Kampir hassasini do‘qillatib, to‘ppa-to‘g‘ri o‘qituvchinning oldiga bordi.

– Nima qilding?! – dedi o‘g‘lining salomiga alik ham olmay. – Nima ish qipqo‘yding?!

Hammamiz hayron bo‘lib qoldik. Muallim o‘quvchilarining oldida, ayniqsa, mulzam bo‘ldi, shekilli, qizarib ketdi.

– Nima qilibman, oyi? – dedi ko‘zlarini pirpiratib.

– Dard! – kampir hassasi bilan yerni nuqidi. – Sanga qachon aql kiradi, nodon bola! – Keyin Azim akaga yuzlandi. – Bu-ku aqmoqlik qilishga qipti, siz qayoqda

edingiz? Nega ko'chadan loy qildilaring?! Ko'chaning tuprog'iga tegib bo'ladimi, nobakor! Ko'pchilikning haqi-ku, bu! – Kampir bir zum harsillab turdi-da, to'satdan yig'lab yubordi. – Man yurtning haqiga suvalgan tom tagida turmayman!

Shunday dedi-yu, supa labiga borib, ters o'tirib oldi...

...Hammamiz qaytadan tomga chiqdik... Suvoq qilishdan ko'ra loyni ko'chirish qiyin bo'larkan. Bitta qoldirmay, qirtishlab, tomdan tushirdik. Paqirlab tashib, ko'chadagi loyxandaqni to'ldirib qo'ydik...

...Oradan yillar o'tib, kampir ko'z yumganida tumonat odam uni o'sha ko'chadan so'nggi manziliga ko'tarib bordi...

Ko'cha tuprog'i iliq edi... Mayin edi...

(O'tkir Hoshimovdan)

1-topshiriq: *Matnni o'qing va mazmunini so'zlab bering.*

2-topshiriq: *Matn tarkibidagi har bir so'zni (lug'at yordamida) boshqa ma'nodoshi bilan almashtirib, matnni qayta tuzishga harakat qiling.*

3-topshiriq: *Matn mazmunini o'z so'zingiz asosida 4-5 ta gapda yozma ifodalang.*

4-topshiriq: *“Hikmatnoma” kitobidan halollik haqidagi maqollarni toping va ulardan matn mazmuniga aynan mos keladiganini tanlab, daftaringizga ko'chiring.*

Bizda, avvalo, O'zaki va yozma nutqni rivojlantirish fanidan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda keng foydalanish uchun zarur bo'lgan axborot manbalari (masalan, lug'atlar, qomuslar, ma'lumotnomalar) yetarli emas. Shuning uchun ham O'zaki va yozma nutqni rivojlantirish fanidan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda bir necha xil axborot manbasidan foydalanish ko'nikmasi mavjud bo'lmaydi.

fanini o'qitish metodikasiga ko'ra, talaba(o'quvchi) mashg'ulotlar mobaynida quyidagi parametrlarni o'zlashtirishi lozimligi ko'rsatib o'tilgan:

1. *O'qish texnikasi. Bu parametr orqali talabaning notanish bo'lgan matnni ifodali o'qiy olish ko'nikmasi aniqlanadi. Bunda miqdoriy ko'rsatkich sifatida ifodali o'qish tezligi, ya'ni minutiga berilgan matndan nechta so'z o'qiy olish ko'rsatkichi olingan.*

2. *O'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash malakasi bolaning og'zaki bayon qilinayotgan o'zgalar fikrini hamda yozma matn mazmunini anglay olish darajasini aniqlash maqsadida kiritilgan. Bu parametr o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish darajasini aniqlaydi.*

3. *Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi (tugal fikr ifodalangan matn) murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining bosh maqsadi shu parametrdan to'la yuzaga chiqadi. Talabaning ona tili ta'limi jarayonida egallagan ko'nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda professor-o'qituvchi tomonidan talaba egallagan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:*

a) *fikrning mantiqiy izchillikda ifodalanganini aniqlash;*

b) fikrlash, mavzuning murakkablik darajasini aniqlash (sodda, murakkab, konkret, mavhum va hokazo);

d) tavsifning mavzuga muvofiqligini va tavsifning qiymatini aniqlash;

e) tavsifda tilning ifoda vositalaridan maqsadga muvofiq foydalanish darajasini aniqlash;

f) imloviy (yozma) savodxonlikning sifatini aniqlash.

Fanga oid muayyan mavzu yuzasidan materiallar to‘plash topshirig‘i talabani o‘z sohasiga oid muammo, yechim, tavsiya va qarashlar borasida zamon bilan hamqadam bo‘lishni ta‘minlaydi. Masalan,

Matn va uning xususiyatlari. Har qanday og‘zaki va yozma nutq parchasi matn hisoblanadi. Ma‘lum voqelik haqida tasavvur (ma‘lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiy butunlik **matn** hisoblanadi.

Matn nutqiy hodisa bo‘lib, u bir necha gapning mazmuniy birikishi-yaxlit bir fikr ifodasidir. “Bahor. Ekish boshlandi...” shaklidagi gaplarning mazmunan birikishidan tortib, butun boshli badiiy romanlar, yirik trilogiyalar ham matn sanaladi. Har bir matn ma‘lum bir narsa, voqea-hodisani tasvirlaydi, u haqda xabar beradi, so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi.

Matn o‘z tuzilishiga ko‘ra murakkab sintaktik butunlik bo‘lib, xat boshi (abzats), bo‘lim, qism, bob va paragraflardan tashkil topishi mumkin.

Matn mikromatnlarning o‘zaro mazmuniy va grammatik bog‘lanishidan hosil bo‘ladi. Bir necha gaplarning o‘zaro grammatik va mazmuniy bog‘lanishidan tashkil topgan, mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan qo‘shma gaplarga nisbatan yirikroq yozma va og‘zaki nutq parchasi **mikromatn** hisoblanadi. Bir umumiy mavzu ostida birlashgan bir necha mikromatnlardan tashkil topuvchi yaxlit asar **makromatn** deyiladi. Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘g‘ri” hikoyasida ishtirok etgan barcha mikromatnlar “o‘g‘rilik” umumiy mavzusi ostida birlashgan.

Matnning eng kichik birligi gap hisoblanib, ular matn tarkibida ma‘lum bog‘lovchi vositalar yordamida bog‘lanadi. Ular quyidagilardan iborat: bog‘lovchilar, bog‘lovchi vazifasidagi ayrim so‘zlar, takroriy bo‘laklar, olmoshlar... Masalan,

Umidjon a‘lo o‘qishi va odobi bilan litseyda katta hurmatga ega. U jamoat ishlarida ham faol qatnashadi.

Matn tarkibidagi ikkinchi gap boshida kelgan “u” olmoshi birinchi gap tarkibida kelgan Umidjon o‘rnida kelib, ikkinchi gapni birinchi gapga mazmunan bog‘laydi. Shuning uchun “u”olmoshi matn qismlarini bog‘lovchi, ya’ni matn hosil qiluvchi vosita sanaladi.

Mikromatni hosil qilishda takrorlar eng muhim vositadir, chunki u ham gaplarni bog‘lovchi vosita hisoblanadi, ham uslubiy bo‘yoqdorlik hosil qiladi:

Olti oykim she‘r yozmayman, yuragim zada,

Olti oykim o‘zgalarga tilayman omad.

Olti oykim do‘stlarim ham pana-panada

Iste‘dodim so‘nganidan qilar karomat (Abdulla Oripov).

Matn tasvirlash asosida hosil qilinadi. Tasvirlash uchun o‘quvchi matndagi voqea sodir bo‘lgan vaziyatni, qatnashuvchi shaxslarning tashqi ko‘rinishi, uning xususiyatlarini yaxshi bilishi kerak. Matn asosida narsa va hodisalar tasvirlanadi, so‘zlovchining munosabati aniqlanadi.

O‘quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlar esa, asosan, gap, abzats va qismdan iborat bo‘ladi. Bu birliklar, albatta, matn hosil qilishda ishtirok etadi va uni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktab amaliyotida matnning *tasvir, rivoya, va muhokama* kabi bayon usullaridan ko‘proq foydalaniladi. Bu usullar o‘rtasida garchand aniq chegara bo‘lmasa-da, ular mazmuni, tuzilishi, tilning ifoda vositalaridan foydalanish jihatidan bir-biridan farq qiladi.

Yuqori sinflarda matn ustida ishlashning tasvirlash, rivoyat va hikoya, muhokama qilish usullaridan ko‘proq foydalaniladi. Bu usullar ustida aniq chegara bo‘lmasa-da, ularning har qaysisi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Tasviriy matnda, asosan, tabiat manzarasi, ish jarayonlari yoki biror vaziyat tasvirlanadi. Tasvirlash kuzatuvchanlik bilan bog‘liq. Shuning uchun ona tili darslarida bolalarni kuzatuvchanlikka, eng muhim belgi yoki xususiyatlarni ko‘ra bilishga o‘rgatish talab etiladi.

Voqeaning izchillikda berilishi, ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, dialogik nutqda dalillar va ularning tavsilotlariga alohida o‘rin ajratilishi **rivoya va**

hikoya qilish asosidagi tasviriy matnlarga xos xususiyatdir. Voqealar hikoya qilish asosida tasvirlanadi. Ona tili mashg'ulotlarida bunday matnlardan juda ko'p foydalanishga to'g'ri keladi. **Muhokama tarzidagi matnlar** yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik, halollik va tekinxo'rlik, do'stlik va dushmanlik, sabr-qanoatlilik va sabrsizlik kabi mavzularda bo'lishi mumkin.

Matn turlari. Matn og'zaki yoki yozma nutqqa xos bo'lishidan qat'iy nazar, ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. **Dialogik matn** ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialogik nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarni ifodalab, fikr xususidagi tasdiq yoki inkorni, ziddiyat yoki munozarani bildiradi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar, asosan, sodda gaplardan tashkil topadi, asosan, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faol ishlatiladi.

Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir. Dialogik matnning sintaktik qurilishi monologik matnga nisbatan sodda tuzilgan bo'ladi. Dialogik matn fikrlarning qisqaligi bilan ajralib turadi. Unda suhbatni davom ettirish uchun eng zarur narsalargina ifodalangan bo'ladi. Voqealar keng izohlanmaydi. Shu jihatdan ham dialogik matn monologik matndan ajralib turadi. Masalan:

- *Shu, deyman, Toshpo'lat, sen menga mundaq xushomad qilsang-u Xolidaga uylansang nima bo'larkan? – deb hazillashdi Samad. – U mening jiyanim, sen mening do'stim, begonaga uzatgandan ko'ra...*
- *Senga xudo bas kelsin, oshna, -dedi G'aybarov. – Esing joyidami yo meni uyingga kelmaydigan qilmoqchimisani?*
- *Nega, qarindosh bo'lsak yomonmi?*
- *Xolida hali yosh-ku?.. –Ma'suma bu gap og'zidan qanday chiqib ketganini payqamay qoldi. Labini tishladi. G'aybarovga zimdan razm soldi: yo'q, og'rinmadi, tusi o'sha-o'sha...*

- *Hazil, -deb kuldi Samad. –Darvoqe, Toshpo‘lat, ko‘pdan beri so‘ramoqchi bo‘lib yuraman, haliyam Galatepaga ko‘milishim shart, deb o‘ylaysanmi?*

- *Har holda, tug‘ilgan joying....* (Murod Muhammad Do‘st)

Monologik matn so‘zlovchining o‘z-o‘ziga yoki boshqalarga qaratilgan nutqi bo‘lib, u nutq sohibining ruhiy kechinmalari, voqelikka munosabatini o‘ziga xos ohang va emotsiya orqali ifodalashga xizmat qiladi. Bunday matn tavsifiy matn tarkibiga kirsa-da, badiiy uslub xususiyatlarini o‘zida namoyon etishi, hissiy ifoda tarzi va muhimi, ijtimoiy estetik maqsadi bilan ajralib turadi.

Monologik matnda tilning barcha tasviriy vositalari, so‘z-gaplar, kiritma, undov va undalmalar, sodda, uyushiq bo‘lakli va ritorik so‘roq gaplar faol ishlatiladi.hamda so‘zlovchining fikr-mulohazalari, shaxsiy kechinmalari I shaxs nomidan bayon qilinadi. Og‘zaki nutqda monologik matn ohang, urg‘u, to‘xtam, ritm, tovush sur‘ati kabi fonetik hodisalarni kuchli ifodalovchi nutq ko‘rinishlari sanaladi. Masalan:

Ma‘lumki, san‘at, shu jumladan, so‘z san‘ati-adabiyot ham kishilarning ongiga hissiyot, yurak orqali ta‘sir qiladi. Adabiyot biror-bir ijtimoiy hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini faktlar, raqamlar bilan isbot qilib, xulosa chiqarmaydi; balki kishilarda shu hodisaga nisbatan muhabbat yoki nafrat hissini tug‘diradi. Biror-bir hodisaning yaxshi yoki yomon ekanligini bildirish bilan unga nisbatan nafrat yoki muhabbat hissi tug‘dirish orasida juda katta farq bor. Bilgan kishi bilib qo‘yaverishi mumkin, lekin his qilgan kishi his qilib qo‘yavermaydi. Adabiyotning zo‘r tashviqiy kuchi ham mana shundan iborat.

Bundan ma‘lum bo‘ladiki, yozuvchining biror hodisaga o‘quvchida muhabbat yoki nafrat hissini qo‘zg‘atishi uchun avvalo o‘sha his o‘zida bo‘lishi kerak.(A.Qahhor)

Monologik matn tavsifiy matn tarkibiga kirsa-da, undan farq qiladigan tomonlari mavjud. Ma‘lum voqea-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta‘riflash, izohlash, isbotlash, asosan tavsifiy matnga xos xususiyatlardir. Shuning uchun

bunday matnda belgi-xususiyatni ifodalovchi soʻzlar, atamalar, modal soʻzlar, feʼlning funksional shakllari, ravishlar faol qoʻllaniladi.

Tavsifiy matn yaratishda uyushiq boʻlaklar, ajratilgan gap boʻlaklari, atov gaplar, qoʻshma gap koʻrinishlaridan keng foydalaniladi. Tavsifiy matn ilmiy, publitsistik, rasmiy-idoraviy, shuningdek, badiiy uslubga xosdir. Tavsifiy matn soʻzlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, maʼlumot bayonidir. Maqola, insho ham tavsifiy matnning bir turi sanaladi. Masalan, quyida berilgan rasm, savol va topshiriqlar asosida tavsifiy matn ham, tasviriy matn ham yaratish mumkin:

- Rasmda tasvirlangan oʻsimliklar nomini ayting.
- Choʻqqining tepasiga koʻtarilish mumkinmi?
- Choʻqqining aksi koʻringan joyning nomi nima?
- Rasmda nimalar koʻrinadi-yu, nimalar koʻrinmaydi?
- Tog va oʻrmonlarda yovvoyi hayvonlar koʻpmi?
- Togʻ va uning suvdagi aksini nimaga oʻxshatish mumkin?
- Aks etgan manzara haqida batafsil fikrlaringizni bayon eting.



Tasviriy matnda, asosan, tabiat manzarasi, alohida narsalar (buyumlar), voqea va hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi. Matnning bu turida

tasvirlanayotgan narsa, voqea-hodisa kabilarning o'ziga xos tashqi belgilariga alohida e'tibor beriladi. Bayonning bu usulidan ayniqsa 5-7 sinflarda ko'proq foydalaniladi. Chunki bu usul o'quvchilar uchun uncha murakkablik tug'dirmaydi va ular til hodisalarini o'rganish jarayonida yil fasllari, lola sayli, maktab bog'i, xo'jalik fermasi, paxta dalasi, cho'l, sahro, tog', daryo, shahar, qishloq va hokazolar tasvirini bema'lol yaratishlari mumkin.

Tasvirlash kuzatuvchanlik bilan bog'liq. Shuning uchun ona tili mashg'ulotlarida bolalarni kuzatuvchanlikka o'rgatish, narsa, voqea, hodisalardagi eng muhim belgi va xususiyatlarni ko'ra bilishga odatlantirish juda katta ahamiyatga ega.

Bayon usulining ikkinchi turi rivoyadir. Rivoya matni tasviriy matndan, voqeaning izchillikda berilganligi, unda ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, dialogik nutqdan foydalanish kabilari bilan ajralib turadi. Bunday matnlarda voqea-hodisa bir mazmuniy yaxlitlikni tashkil etadi va o'quvchi bayonida bu yaxlitlik albatta saqlanishi shart. Matnning bu turida dalillar va ularning tafsilotiga alohida o'rin ajratiladi; voqealar hikoya tarzida bayon qilinadi. Rivoya matnida tasvir unsurlaridan ham foydalaniladi.

Ona tili mashg'ulotlarida bunday matnlardan juda ko'p foydalanishga to'g'ri keladi. *"Bizning oila"*, *"Yoz kunlarining birida"*, *"Darvozabon"*, *"Rahim kasal bo'lib qoldi"*, *"Mening do'stim"* kabi mavzularda yaratiladigan matnlar shular jumlasidandir.

Ona tili mashg'ulotlarida keng qo'llaniladigan bayon usulining yana bir turi *muhokamadir*. Muhokama matnining o'ziga xos xususiyati shundaki, so'zlovchi (o'quvchi) bayon qilinayotgan voqea-hodisaga o'z munosabatini bildiradi. O'z fikrini isbotlash uchun dalillar izlaydi va uni asoslashga intiladi. U kuzatish, taqqoslash natijalariga tayanib, ma'lum bir fikrni rad etadi va bu haqda o'z hukmini chiqaradi.

Muhokama tarzidagi matnlar yaxshilik va yomonlik, mehnatsevarlik va ishyoqmaslik, halollik va tekinxo'rlik, to'g'rilik va egrilik, yaxshi so'z va yomon so'z, do'stlik va dushmanlik, botirlik va qo'rqqoqlik, odob va odobsizlik, qadr-qimmat va qadrsizlik, sabr-qanoat va sabrsizlik kabi mavzularda bo'lishi mumkin.

Ayniqsa, xalq maqollarini muhokama matnining mavzusi qilib tanlash maqsadga muvofiqdir. Masalan, “*Betga aytganning zahri yo‘q*”, “*Dili to‘g‘rining – yo‘li to‘g‘ri*”, “*Yaxshi so‘z ham, yomon so‘z ham bir og‘izdan chiqadi*”, “*Sayoq yurgan – tayoq yer*” kabi.

Matnlar uslub jihatidan ham rang-barangdir. Ona tili mashg‘ulotlarida badiiy, publitsistik, ilmiy va rasmiy matnlardan foydalaniladi. Har bir uslub ma‘lum bir til me‘yorini talab etadi.

Badiiy uslubda yozilgan matnlarning o‘ziga xos xususiyati ularda tasviriylilik va ta’sirchalikning kuchli ifodalanishidir. O‘quvchi badiiy matn yaratishda tabiat va ijtimoiy borliqqa nisbatan erkin munosabatda bo‘ladi: uning mohiyatini ochish uchun turli-tuman leksik birliklar (ko‘p ma’noli so‘zlar, ma’nodosh va qarama – qarshi ma’noli so‘zlar), tasviriy ifoda va frazeologik birikmalar, adabiy tilning tasvir vositalari-o‘xshatish, mubolag‘a, kichraytirish, jonlantirish kabilardan o‘z imkoniyatiga qarab bemalol foydalana oladi. Badiiy matn o‘quvchilarda badiiy didni shakllantirishning asosiy vositasidir. O‘quvchi bunday matnlar orqali go‘zallik va nafosat olamiga kiradi, oz quvonchi va tashvishlari bilan o‘rtoqlashadi, sevimli qahramonlariga ergashadi.

Publitsistik matn¹ ko‘proq matbuotga xos bo‘lib, u xabar, maqola, taqriz, intervyu, reportaj kabilar asosida namoyon bo‘ladi. Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarni publitsistik matnlar yaratishga o‘rgatish uchun, avvalo, ushbu usulning til xususiyatlari bilan yaqindan tanishtirish lozim. Publitsistik matnning tili pishiq, aniq, ifodali, ravon, ixcham, jonli bo‘lib, u nutqning jangovorligi, ta’sirchanligi, o‘qimishlilik va ommabopligini ta’minlaydi.

Ona tili o‘qitish amaliyotida *ilmiy* matnlardan ham keng foydalaniladi. O‘quvchilar ish ko‘radigan va ular yaratadigan ilmiy matnlarni ikki guruhga ajratish mumkin: sof ilmiy matnlar; ilmiy-ommabop matnlar.

Sof ilmiy matnlar qat’iy, faqat ma‘lum bir sohaga doir tushunchalar asosida yaratiladi.

¹ Qarang: O‘rinboyev B. va boshqalar. Badiiy matnning lingvistik tahlili. Toshkent, O‘qituvchi, 1990, 10-bet.

Ilmiy–ommabop matnlarda esa ayrim murakkab tushunchalarga aniqlik kiritiladi va ular ko‘pchilikning tushunishiga moslashtirilgan holda beriladi. Unda tasvir unsurlaridan ham foydalaniladi.

Ramziy matnlar ona tili o‘qitish jarayonida ancha salmoqli o‘rin egallaydi. O‘quvchilar hukumat qarorlari, buyruqlari, shartnomalar, rasmiy e‘lonlar, ayniqsa, rasmiy ish qog‘ozlari-ariza, tarjimai hol, ishonch qog‘ozi, tilxat, telegramma, ma‘lumotnoma, tavsifnoma, qaror, hisobot, xat, e‘lon kabilar bilan ish ko‘rish jarayonida nutqning bu ko‘rinishini mukammal egallab boradilar.

O‘quvchilarning og‘zaki nutqini o‘stirishga mo‘ljallangan matnlar.

Og‘zaki nutqda har bir kishidan o‘z suhbatdoshining fikrini tez anglashi, suhbatda zarur bo‘lgan so‘zni tez topishi, har bir so‘zning ma‘nosini matnga bog‘liq holda tushuntirishi, qo‘llanadigan so‘zning o‘ziga mos sinonimini topib ishlatishi talab qilinadi. Tabiiyki, og‘zaki nutqda o‘ylab so‘z tanlashga vaqt bo‘lmaydi. Shunga ko‘ra, oldin iste‘molda bo‘lgan va esda saqlanib qolgan so‘zlar qo‘llaniladi.

Og‘zaki nutq yozma nutqning asosidir. Ammo, afsuski, ko‘p hollarda ona tili mashg‘ulotlarida asosiy e‘tibor o‘quvchilarning yozma nutqiga qaratilib, og‘zaki nutqi uning soyasida qolib ketadi. Natijada maktabni bitirib chiqayotgan yoshlarning talaygina qismi til imkoniyatlaridan foydalanayotganda, fikrini og‘zaki bayon qilishga qiynaladi.

Ona tili mashg‘ulotlari o‘quvchilarning og‘zaki nutqini rivojlantirishda anchagina qulay imkoniyatlarga ega. Bunday mashg‘ulotlar jarayonida matnning mazmunini saqlagan holda shaklini o‘zgartirib bayon qilish, she‘riy asarlar mazmunini nasriy yo‘l bilan bayon qilish, matnni qisqartirib yoki kengaytirib bayon qilish, saylab bayon qilish kabi turlaridan keng foydalaniladi.

Topshiriq namunasi. Quyidagi matnni o‘qing. Dialogli gaplarni ko‘chirma gapga aylantirib, hikoyaning mazmunini qayta so‘zlab bering.

Topshiriq namunasi. Abdurahmon Jomiyning quyidagi hikmatini o‘qing va mazmunini kengaytirib bayon qiling.

So‘zingni bezatmoq bo‘lsa gar tilak,

Rostlikdir so‘zingga eng yaxshi bezak.

Ruhing yasatmasin yolg'on rang bo'yoq,

Yolg'ondan ruhingga tushar xira dog'.

O'quvchilardan she'riy asar mazmunini nasriy yo'lda bayon etishni talab qilish ham ular nutqining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Og'zaki nutqni rivojlantirishning yana bir yo'li matn mazmunini saylab so'zlashdir. O'quvchi o'qigan yoki eshitgan matnning mazmunini to'la so'zlab bermaydi, balki o'rganilayotgan til hodisasiga aloqador joylarinigina ajratib, uning mazmunini hikoya qiladi.

Ona tili mashg'ulotlarida egallangan til hodisalarini eslash, o'rganilgan matn mazmunini xotirada tiklab, uni qayta hikoya qilib berish ham og'zaki nutqning rivojlanishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash

Kuzatishlarimiz ko'rsatadiki, mustaqil ta'limning muayyan mavzu yuzasidan test, munozarali savollar va topshiriqlar tayyorlash shaklini talabalar qiziqish bilan bajarishadi. Masalan,



Bilimingizni sinab ko'ring :

1. Qanday xususiyatlar matnga xos?
2. Matnning ko'rinishiga ko'ra qanday turlari mavjud?
3. Matn mazmuniga ko'ra qanday turlarga ajratiladi?
4. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga mo'ljallangan qanday matn turlari bor?
5. Tasviriy va tavsifiy matnlar qanday jihatlariga ko'ra farqlanishi mumkin?
6. Til hodisalarining mohiyatini anglashga mo'ljallangan qanday matnlar mavjud?

Test sinovi:

1.Ona tilini o'qitishdan maqsad ?

#A.ta'lim oluvchilarda mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy fikr mahsulini nutq vaziyatiga mos ravishda to'g'ri va ravon bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirish.

B.adabiy-badiiy asar mohiyatini, uning asosiy nuqtalarini og'zaki va yozma tarzda ifodalay olish, bu haqdagi o'z fikrlarini boshqalarga og'zaki va yozma tarzda yetkazish yo'llarini egallash

C.og'zaki nutqlarining adabiy til me'yorlari asosida shakllanishi va rivojini ta'minlash, nutqiy kompetensiyani o'stirish;

D.yozma nutqlarida yuksak savodxonlik, adabiy til me'yorlariga rioya etish, uslubiy rang-barangliklardan foydalana olishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanishiga erishish;

2.O'quvchi nutqiga qo'yilgan eng muhim talablar to'g'ri ko'rsatilgan qatorni toping.

#A.nutqning mazmundorligi, fikrning mantiqan to'g'ri, aniq va izchil bo'lishi

B.o'quvchilarni so'z yasashga, so'zning yangi shakllarini hosil qilishga o'rgatish, so'z zaxirasini oshirish

C.imloviy savodxonligini takomillashtirish

D.gap qurish va matn yaratish malakalariga ega bo'lish

3."Ona tili o'qitish konsepsiyasi"da ona tili ta'limining asosiy maqsadi to'g'ri belgilangan qatorni toping.

#A.ta'lim oluvchida ijodiylik, mustaqil fikrlash malakalarini chuqurlashtirib, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish

B.imloviy savodxonligini takomillashtirish;punktuatsion malakalarni rivojlantirish; talaffuz meyorlarini o'rgatish

C.o'quvchilarni so'z yasashga, so'zning yangi shakllarini hosil qilishga o'rgatish, so'z zaxirasini oshirish, so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanishga o'rgatish

D.nutqni og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri va ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish

4.Ushbu fikrlar kimga tegishli?

"Og'zaki nutqdan kuzatiladigan maqsad bayon qilinadigan fikrlarga mos so'zlarni tezlik bilan topa olishga, nutq davomida fikrni tizimlashtiruvchi reja tuzishga, o'z fikrini ishonarli va qat'iy bayon qilishga o'rgatish va, nihoyat, o'quvchilarda hozirjavoblikni o'stirishdan iborat"

#A.H.Ubaydullayev

B.A.Qahhor

C.Konfutsiy

D.Fitrat

5.Matn mazmuniga ko'ra qanday turlarga ega?

#A.tasviriy, rivoya, va muhokama

B.rivoya va hikoya matni

C.mikromatn va makromatn

D.tekshiruv va muhokama matn

6.Qanday matnga rivoya matni deyiladi?

#A.voqeaning izchilikda berilganligi, unda ishtirok etuvchi shaxslarning borligi, dialogik nutqdan foydalanish kabilar bilan ajralib turadi. Bunday matnlarda voqea-hodisa bir mazmuniy yaxlitlikni tashkil etadi . Matnning bu turida dalillar va ularning tafsilotiga alohida o`rin ajratiladi; voqealar hikoya tarzida bayon qilinadi.

B.soz'lovchi (o'quvchi) bayon qilinayotgan voqea-hodisaga o'z munosabatini bildiradi. O'z fikrini isbotlash uchun dalillar izlaydi va uni asoslashga intiladi. U

kuzatish, taqqoslash natijalariga tayanib, ma'lum bir fikrni rad etadi va bu haqda o'z hukmini chiqaradi.

C. voqea da ishtirok etadigan shaxslar bo'lmaydi. Unda, asosan, tabiat manzarasi, alohida narsalar (buyumlar), voqea va hodisalar, ish jarayonlari tasvirlanadi.

D. ko'proq matbuotga xos bo'lib, u xabar, maqola, taqriz, intervyu reportaj kabilarda namoyon bo'ladi.

1-topshiriq. Berilgan tayanch so'zlar ishtirokida bir-birini to'ldiruvchi gaplar tuzing.

kuchli, kuzgi, harakatchan, serhosil, badavlat, baxt, halovat, farovonlik.

2-topshiriq. Jummalarni davom ettiring:

1) Shuni anglamoq kerakki,...

2) Es-hushli do'stlaringiz bo'lsa,...

3-topshiriq. She'riy matnni nasriy usulda bayon eting.

ONA TUPROQ

Nega inson yerni qutlug' der,
Tuproqni ham sanar muqaddas?

Yo'q, mo'tabar emas asli yer,
Tuproq o'zi tabarruk emas.

Dastlab o'sha yer uzra odam
To'kkanida halol manglay ter,
Gavhar undi ona tuproqdan,
Qutlug' bo'ldi muazzam bu yer.

Qutlug' bo'ldi bu yer.
O'z muborak tuprog'in inson
Yot nazardan asrab har nafas,
Uni quchib fido etdi jon,
Qoni bilan qildi muqaddas.
Yo'q, mo'tabar emas asli yer,
Qutlug' emas tuproq hech qachon.

Muborakdir inson to'kkan ter,
Mo'tabardir qutlug' toza qon.

Erkin Vohidov.



4-topshiriq. Uqib oling: o'zbek tilining izohli lug'ati yordamida so'zlarning ma'nosini izohlang.

Avlo, avlod, avramoq, avom, avtoritar, avtonom, agent, agglyutinativ, agregat, agressiv, adabiy, abadiy.

5-topshiriq. *Og'zaki nutq mashqi.* "Kasbidan kamol topganlar" mavzusida taassurotingizni ifodalang.

Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash

Talabaga muayyan mavzu bo'yicha testlar, qiyinchilik darajasi har xil bo'lgan topshiriqlar, munozaraga asos bo'ladigan savollar tuzish topshiriladi. Ilmiy maqola, tezislar va ma'ruza tayyorlash ancha murakkab jarayon bo'lib, bu eng a'lochi, iqtidorli yoki ilmiy mushohadaga uquvi bor talabalar bilan amalga oshiriladi. Masalan, talaba ma'ruza tayyorlashi uchun kamida 50-60ta oliy ta'lim tizimi uchun puxta ishlangan ma'ruza matnini diqqat bilan o'qib, ham uqib chiqqan bo'lishi zarur. Zero, ma'ruza tayyorlash—ancha murakkab va ko'p mehnat talab qiladigan ish. S.I.Arxangelskiyning fikricha, ma'ruza o'qituvchisi shaxsining barcha boyligi: ongi, hissiyoti, irodasi, tuyg'usi, e'tiqodi orqali talabalar ichki dunyosi bilan muloqotda bo'lishining eng samarali, jonli shaklidir.

Ma'ruza oliy o'quv yurtlari auditoriyalarida eng ko'p qo'llanadigan dars shakli hisoblanadi. Ma'ruza fanga tegishli darslik, o'quv qo'llanmalar va boshqa manbalardagi materiallarni qayta bayon qilib berishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki o'qituvchining aniq bir soha bo'yicha shaxsiy, ilmiy-pedagogik, ijodiy izlanishlarini ham o'zida jamlashi lozim. Yetuk ma'ruza o'quvchi talabaga ma'ruzaga vaqtinchalik deb qaramasdan, balki muntazam ravishda unga tayyorlanib borishi, ma'ruzani qayta ishlab, to'ldirib va mukammallashtirishi lozim. Ana shu jihatlarni inobatga olgan holda tayyorlangan ma'ruzagina mustaqil ta'limning oliy ko'rinishi bo'la oladi.

Oliy ta'lim mashg'ulotlari uchun ma'ruza tayyorlash qanchalk qiyin bo'lmasin, talabaga bunday mustaqil ta'lim topshirig'ini berishdan chekinmaslik kerak. Zero, narvonning yuqori pillapoyasiga ham pastdan chiqilishini unutmashlik zarur.

Muayyan mavzular yuzasidan nostandart topshiriqlar tayyorlash

Jahonning rivojlangan mamlakatlarida professor-o'qituvchilar tomonidan o'quv kursi mazmuni bo'yicha test topshiriqlari bankini tuzib, mazkur testlardan My test dasturi vositasida adaptiv test topshiriqlarini yaratib, talabalarning o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni

tashkil etilmoqda va bu jarayon ta'lim samaradorligining ortishiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatayotganligi ma'lum bo'ldi.

Shuni qayd etish kerakki, talabalarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va o'z-o'zini nazorat qilish jarayoni oliy ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas uzviy qismi bo'lib, mazkur jarayonni maqsadga muvofiq tashkil etilishi ta'lim samaradorligini orttirishga zamin tayyorlaydi.

Oliy ta'lim bo'g'ini–bakalavriat va magistratura ta'limi maqsadida jahon standartlariga mos, raqobatbardosh, intellektual salohiyatli mutaxassisni jamiyatga yetishtirib berish mo'ljali turadi. Zero, har qanday mamlakatning asosiy kuchini ziyolilar tashkil etadi, jamiyat taraqqiyoti ziyolilarning ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga qay darajada egaligi bilan belgilanadi.

Tilshunoslik bo'yicha tavsiya etayotgan nostandart topshiriqlarimizdan (talabalar tomonidan bajarilishi ko'zda tutilgan ta'lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri) ijodiy faoliyat tajribalari bosqichini aniqlashda qo'llaniladigan nazorat turi sifatida foydalanish mumkin. Bu talabalar tomonidan aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosa yasashni, ya'ni ijodiy fikr yuritishni talab etadi.

Xulosa shuki, butun mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida tub islohotlar⁷ amalga oshirilayotgan bir davrda an'anaviy shakl va usullardan voz kechishimiz, samara bera oladigan yangiliklar, masalan, nostandart topshiriqlardan unumli foydalanib, ta'lim samaradorligining oshishini ta'minlamog'imiz zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Nostandart topshiriqlarni tuzish, bajarish jarayonlaridan talabalarimiz xabardor bo'lishlari shart. Quyida nostandart topshiriq namunalarini havola etamiz:

Nuqtalar o'rniga quyida berilgan so'zlardan mosini qo'yib, maqollarni ayting.

So'zlar: nojo'ya, yaltiroq, kerakli, qaltiroq.

1...yukning og'irligi yo'q.

⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги «Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ 2909-сон Қарори.

2...o`yin sindirar bo`yin.

3.Usti...,ichi... .

Nuqtalar o`rniga quyida berilgan so`zlardan mosini qo`yib, maqollarni ayting.

So`zlar: o`ziga, yaxshi , dil, so`ziga.

1... bilsang ishingni,

Yaxshilar silar boshingni.

2.Til-... kaliti.

3...boqma, ...boq.

Nuqtalar o`rniga quyida berilgan so`zlardan mosini qo`yib, maqollarni ayting.

So`zlar: to`zar, er, o`zar, sher.

1.O`qigan..., o`qimagan...

2.O`zingni ... bilsang, o`zgani ... bil.

Nuqtalar o`rniga quyida berilgan so`zlardan mosini qo`yib, maqollarni ayting.

So`zlar: o`zini, sevmoq, o`zgani.

1... bilmagan ...bilmas.

2.Vatanni Iymondandir.

Nuqtalar o`rniga quyida berilgan so`zlardan mosini qo`yib, maqollarni ayting.

So`zlar: yurt, odam, yurtningning, chamanini ,tinchlik.

1.O`z ... qadri o`zgada bilinadi.

2 Bulbul.... sevar, ... -Vatanini.

3.... urushni yengar.

Quyidagi jadval asosida so `zlarni tarkibga ajrating.

So`z tarkibi			
So`zlar	O`zak	So`z yasovchi qo`shimcha	Shakl yasovchi qo`shimcha
olmazorni			
hunarmand			
maktabda			

So`z tarkibi			
So`zlar	O`zak	So`z yasovchi qo`shimcha	Shakl yasovchi qo`shimcha
boychechak			
ma`naviyatli			
mehnatkashlar			

Quyida berilgan leksemalarni belgi ifodalovchi va nom ifodalovchilarga ajrating va mos raqamlarni jadvalning *javob raqamlar* qismiga yozing⁸.

1) [havorang]; 2) [gulqaram]; 3) [havasli]; 4) [suhbatdosh]; 5) [soyaparvar]; 6) [g'alcha]; 7) [tillakokil]; 8) [shaddod]; 9) [shirakayf]; 10) [ozgina]; 11) [ko`proq]

leksema turi	javob raqamlar
belgi ifodalovchi leksemalar	
nom ifodalovchi leksemalar	

№	Mustaqil ta`lim mavzulari	soati
1	Og`zaki nutqni rivojlantirish bo'yicha adabivotlarni o'rganish va tahlil qilish	2
2	Yozma nutqni rivojlantirish bo'yicha adabivotlarni o'rganish va tahlil qilish	2
3	Maktab ona tili darslik va o'quv qo'llanmalarining bobiari hamda mavzularini og`zaki nutqni rivojlantirish nuqtayi nazaridan o'rganish	2
4	Maktab ona tili darslik va o'quv qo'llanmalarining bobiari hamda mavzularini yzma nutqni rivojlantirish nuqtayi nazaridan o'rganish	2
5	Og`zaki nutqni rivojlantiruvchi matnlar audiosini tayyorlash	2
6	Og`zaki nutqni rivojlantiruvchi matnlar videoroligini tayyorlash	2
7	Og`zaki nutqni rivojlantiruvchi (muayyan mavzular doirasida) matnlar jamlanmasi taqdimotini tayyorlash	2
8	5-sinf o`quvchilari uchun diktantlar to`plamini tuzish	2
9	6-sinf o`quvchilari uchun diktantlar to`plamini tuzish	2
10	7-sinf o`quvchilari uchun diktantlar to`plamini tuzish	2

⁸ Yo`ldosheva D., Yusupova D. Tilshunoslik mavzulariga oid nostandart topshiriqlar .Metodik qo`llanma.–Toshkent: Paradigma, 2018.–48 b.

11	8-sinf o'quvchilari uchun diktantlar to'plamini tuzish	2
12	5-sinf o'quvchilari uchun bayonlar to'plamini tuzish	2
13	6-sinf o'quvchilari uchun bayonlar to'plamini tuzish	2
14	7-sinf o'quvchilari uchun bayonlar to'plamini tuzish	2
15	8-sinf o'quvchilari uchun bayonlar to'plamini tuzish	2
16	9-sinf o'quvchilari uchun bayonlar to'plamini tuzish	2
17	10ta ijodiy insho yozish	2
18	5ta ilmiy insho yozish	2
19	2ta tasviriy insho yozish	2
20	OAVlaridagi uslubiy g'alizliklarni tahlil qilish	2
	jami	40 soat

Fan bo'yicha savollar to'plami:

1. Nutq turlari qaysilar?
2. O'quvchular nutqiga qo'yiladigan asosiy talablar qaysi?
3. O'rta umumta'lim maktablarida o'quvchilar nutqining ahvoli qanday?
4. Maktabda o'quvchilarning og'zaki nutqi qanday nazorat qilinadi?
5. Maktabda o'quvchilarning yozma nutqi qanday nazorat qilinadi?
6. Matn turlari.
7. Til hodisalarining mohiyatini anglashga mo'ljallangan matnlar.
8. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishga mo'ljallangan matnlar.
9. O'quvchilar yozma nutqini o'stirishga mo'ljallangan matnlar.
10. "Bayon" so'zining qanday lug'aviy ma'nolari bor?
11. So'zlashish san'ati deganda nimani tushunasiz?
12. Og'zaki nutq me'yorlari tasnifini tushuntiring.
13. Mutaxassislar nutq ko'rinishlarini necha guruhga ajratadilar?
14. Turkiy notiqlar haqida ma'lumot bering.
15. Bilimlarni tayyor holda bayon etishning nutqqa ta'siri haqida ma'lumot bering.
16. Ona tili darslarida bilimlarni muammoli yo'l bilan hal qilish metodining nutqqa qanday ta'siri bor? Misollar bilan tushuntiring.
17. Qayta xotirlashga asoslangan metod og'zaki nutqqa qanday ta'sir ko'rsatadi?
18. Qisman izlanuvchanlik metodi asosida tashkil qilinadigan ona tili mashg'ulotlarida bajariladigan mustaqil ish turlarini sanab bering.
19. Ona tili mashg'ulotlarida ta'lim metodlarini tanlashda nutq o'stirish masalasiga qanday e'tibor qaratiladi?
20. Mustaqillik davrida o'zbek ta'lim tizimidagi inqilobiy o'zgarishlar haqida gapiring. Uning nutqqa qanday ta'siri bor?
21. Insho – o'quvchi yaratadigan matnning ko'rinishi.
22. Ta'limiy insholar.
23. Nazorat qilishga qaratilgan insholar.
24. Ko'rik – tanlov insholari.
25. Ilmiy insholar.
26. Badiiy insholar.
27. Erkin mavzudagi insholar.

TALABALARNI BAHOLASH TARTIBI

Talabaning o'zlashtirish darajasi quyidagi ball asosida baholanadi:

Darajasi	Ballar (foiz)	Reyting	
A+	95 - 100 ball	5	A'LO
A	90 - 94 ball	4.0	
B+	85 - 89 ball	3.5	JUDA YAXSHI
B	80 - 84 ball	3.0	
C+	75 - 79 ball	2.5	YAXSHI
C	70 - 74 ball	2.0	
D+	65 - 69 ball	1.5	SHARTLI O'TDI
D	60 - 64 ball	1.0	
F	59 ball va undan past	0.0	O'TMADI

AKADEMIK VA ETIK TALABLAR

Nazorat topshiriqlarini bajarishda ko'chirmakashlikka (plagiat) yo'l qo'yilmaydi.

Test, o'quv loyihalari, mustaqil ishlar, oraliq, joriy, yakuniy nazorat topshiriqlarini boshqa shaxslardan ko'chirib olinishiga yo'l qo'yilmaydi, boshqa talabaning o'rniga imtihon topshirish ta'qiqlanadi.

Kurs bo'yicha har qanday nazorat topshirig'ini soxtalashtirgan talaba "fanni o'zlashtirmagan" ("F") hisoblanadi.

Mashg'ulotlar paytida mobil aloqa va boshqa elektron qurilmalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.

Mashg'ulotlar paytida auditoriyada (virtual auditoriyada) belgilangan talablarga zid harakatlar qilish mumkin emas.

Boshqalar va turli fikrlarga tolerant munosabatda bo'lish talab etiladi.

Kontakt soatlari*: mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish, ularni taqdim etish, zarur ma'lumotlar va turli materiallar bo'yicha savollarga quyidagi grafik asosida o'qituvchiga murojaat qilishingiz mumkin:

№	Kun	Vaqt	Xona
1.	Payshanba	10.00 – 12.00	110
2.	Juma	10.00 – 12.00	110

Muayyan mavzular mag'zini slaydlarda aks ettirish

Odatda, bunda ko'rgazmali vositalar tayyorlash nazarda tutiladi. Talabaga muayyan mavzuni bayon qilish va yaxshiroq o'zlashtirish uchun yordam beradigan ko'rgazmali materiallar (jadvallar, chizmalar, rasmlar, harakatlar, maketlar, modellar, grafiklar, namunalar va h.k.) tayyorlash topshiriladi. Mavzu o'qituvchi tomonidan aniqlanib, talabaga ma'lum ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar beriladi. Ko'rgazmali

vositalarning miqdori, shakli va mazmuni talaba tomonidan mustaqil tanlanadi. Bunday vazifani bir mavzu bo'yicha bir nechta talabaga topshirish ham mumkin.

Fan atamalariga doir kichik izohli lug'at tuzish

Mazkur topshiriq ham talabani fan asoslarini, uning atamalarini, umuman, terminologiyani mustaqil o'rganishi uchun zamin hozirlaydi. Buning uchun talaba, avvalo, izohli lug'atlarning tuzilish tartibini, ifoda bayonidagi lo'ndalik, alifbo tartibiga rioya qilish kabilarni puxta bilishi zarur.

Muayyan matn tarkibi yuzasidan grammatik tahlilni amalga oshirish

Grammatik tahlil talabani til sathlari bo'yicha o'rganganlarini mustahkamlaydi, o'zlashtirgan bilimlarini chuqurlashtiradi. Grammatik tahlil tarkibiga fonetik, leksik, orfografik, morfemik, morfologik, sintaktik, stilistik, punktuatsion tahlil turlari kiradi. Grammatik tahlildan, odatda, shu bo'limlar o'tib bo'lingach foydalaniladi.

1. **Fonetik tahlil**da so'zning fonetik jihatiga e'tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhidir* gapining fonetik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

a) gap tarkibidagi unilarni ajratish: *Ona tili–bu millatning ruhidir*;

b) gap tarkibidagi undoshlarni ajratish: *Ona tili–bu millatning ruhidir*;

d) gap tarkibini bo'g'inlarga ajratish: *O-na ti-li–bu mil-lat-ning ruhi-dir* (gap tarkibida 7ta ochiq, 4ta yopiq bo'g'in mavjud);

e) gap tarkibidagi so'zlarning urg'usini aniqlash: *Ona tili –bu millatning ruhi dir*;

f) gap tarkibidagi ajratilgan so'z tahlili: *millatning*

m– undosh, hosil bo'lish o'rniga ko'ra lab-lab, hosil bo'lish usuliga ko'ra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko'ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko'ra sonor;

i– unli, tilning yotiq holatiga ko'ra til oldi, tilning tik holatiga ko'ra tor, lablar ishtirokiga ko'ra lablanmagan;

l– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra yon tovush, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor;

a– unli, tilning yotiq holatiga ko‘ra til oldi, tilning tik holatiga ko‘ra keng, lablar ishtirokiga ko‘ra lablanmagan;

t– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra portlovchi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangsiz, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra shovqinli;

n– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra til oldi, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor;

ng– undosh, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra sayoz til orqa, hosil bo‘lish usuliga ko‘ra burun tovushi, ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra jarangli, ovoz va shovqin miqdoriga ko‘ra sonor.

2. Leksik tahlilda so‘zning leksik jihatiga e‘tibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhidir* gapining leksik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

a) leksik ma‘no turiga ko‘ra: *ona tili*–bir ma‘noli so‘z, *bu*– bir ma‘noli so‘z, *millat*– bir ma‘noli so‘z, *ruh*– ko‘p ma‘noli so‘z;

b) ma‘no ko‘chishiga ko‘ra: *ona tili*–ko‘chmagan, *bu*– ko‘chmagan, *millat*– ko‘chmagan, *ruh*– metafora usulida ko‘chgan;

d) ishlatilish doirasiga ko‘ra: *barchasi umumiste‘moldagi so‘zlar*;

e) shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra: *ona tili*[o‘zbekcha]– ma‘nodoshi–; shartli antonimi–chet tili; uyadoshi–o‘zbek tili, davlat tili; omonimi–; *bu*[o‘zbekcha]–ma‘nodoshi–u, shu, ana shu; shartli antonimi–anovi; uyadoshi–barcha ko‘rsatish olmoshlari; omonimi–; *millat*[arabcha]– ma‘nodoshi–xalq; shartli antonimi–olamon, to‘da, guruh; uyadoshi–elat, xalq, davlat, mamlakat; omonimi–; *ruh*[arabcha]– ma‘nodoshi–jon, shuur, siyrat; shartli antonimi–o‘lik; uyadoshi– jon, shuur, siyrat, kayfiyat, asos; omonimi–I– jon, shuur, siyrat; II–rangli metall;

f) tuzilishiga ko‘ra: *ona tili* (qo‘shma so‘z); *bu* (sodda tub so‘z); *millatning* (sodda tub so‘z); *ruhidir* (sodda tub so‘z).

3. Orfografik tahlilda soʻzning imloviy jihatiga eʼtibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhidir* gapi tarkibidagi barcha soʻzlar morfologik tamoyil asosida yozilgan.

4. Morfemik tahlilda soʻzning morfemik jihatiga eʼtibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhidir* gapining morfemik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

soʻzlar	asos	qoʻshimchalar					
		soʻz yasovchi	shakl yasovchi qoʻshimchalar				
			soʻz shakli yasovchi	sintaktik shakl yasovchi			
				tuslovchi	turlovchi		
	egalik	kelishik					
ona tili	ona, til					-i	
bu	bu						-ning
millatning	millat						
ruhidir	ruh					-i	

5. Morfologik tahlilda soʻzning turkumiy jihatiga eʼtibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhidir* gapining turkumiy tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

mustaqil soʻzlar							yordamchi soʻzlar			soʻz-ga galar
feʼl	ot	sifat	son	ravish	taqlid	olmosh	koʻmakchi	bogʻlovchi	yuklam	
	ona tili, millatning, ruhidir					bu			a	

6. Sintaktik tahlilda gapning tuzilish jihatiga eʼtibor qaratiladi. Chunonchi, *Ona tili–bu millatning ruhidir* gapining sintaktik tahlili quyidagicha amalga oshiriladi:

- gap tuzilishiga koʻra: sodda yoyiq gap;
- ifoda maqsadiga koʻra: darak gap;
- grammatik asosiga koʻra: ikki bosh boʻlakli gap (*ruhidir–kesim; ona tili–ega*), toʻliq gap;
- gapda soʻzlar bogʻlanishiga koʻra: bitta moslashuvli tobe bogʻlanish mavjud (*millatning ruhidir*); teng bogʻlanish–;
- gap boʻlaklarining ifodalanishiga koʻra: *ruhidir–ot kesim*, turlangan mavhum ot bilan ifodalangan; *ona tili–ega*, turlangan qoʻshma

ot bilan ifodalangan; *bu*–sifatlovchi aniqlovchi, ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan; *millatning*–qaratqich aniqlovchi, turlangan jamlovchi ot bilan ifodalangan.

Talaba mustaqil ishini samarali tashkil etishda:

* tizimli yondoshish;

* barcha bosqichlarini muvofiqlashtirish va uzviylashtirish;

* bajarilishi ustidan qat’iy nazorat o‘rnatish;

*tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini takomillashtirib borish;

*oliy maktabda mustaqil ta’lim olishga bo‘ljak mutaxassislarining o‘quv ijodiy tayyorgarlik sifat va samaradorligini oshirish omili sifatida qaralib, uni uzviy va uzluksiz tashkil etishga e’tiborni kuchaytirish muhim.

Talaba mustaqil ishi vaziyatga qarab **og‘zaki, yozma, qo‘lyozma, elektron** shakllarda tayyorlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 20 апрелдаги № 2909 - сонли Қарори.

2.Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг "Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2017 йил 20 майдаги №304 сонли Қарори. – "Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами".

3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг «Давлат тили ҳақида»ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги ПҚ-4479-сон Қарори.

4. Олий таълимнинг Норматив-ҳуқуқий ҳужжатлари тўплами. –Т., 2013.

5. 2018-йил 9-avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi Nizom”.

6. Mamadiyorov O., Abduxalilova S. Kurs ishlarini bajarish yuzasidan uslubiy ko‘rsatma. (Oliy ta’limning bakalavriat yo‘nalishi 1-kurs talabalari uchun) –Т.: Iqtisod-moliya, 2019 -33 b.

7. Пидкасистый П.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении: Теоретико-экспериментальное исследование. – М.: Педагогика, 1980. –С.88.

8. Yo'ldosheva D., Yusupova D. Tilshunoslik mavzulariga oid nostandart topshiriqlar .Metodik qo'llanma.–Toshkent: Paradigma, 2018.–48 b.

<http://moodle.pharmi.uz/> mustaqil ta'lim mashg'ulotlari

<http://www.lex.uz>

<http://www.ziyonet.uz>

<http://www.gov.uz>

Asosiy adabiyotlar:

1. Kompetensiyaga vo'naltirilgan Davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi: Ona tili, adabiyol. o'zbek tili (5-11-sinflar). –Toshkent, 2020.

2. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.–Toshkent: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.

3. G'ulomov A., Oodirov M. Ona tili o'qitish metodikasi. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012.

4. Roziqov O.v.b. Ona tili didaktikasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005.

5. Yuldasheva D.N. Ona tilini o'qitish metodikasi. –Buxoro: Durdona, 2021.

Qo'shimcha adabiyotlar:

5. Yo'ldosheva D., Hamroyeva Sh. Ona tili ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar.– Metodik qo'llanma.– Toshkent: Turon zamin ziyo, 2017.– 124 bet.

6. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan 4-nashri. –T.: Ma'naviyat, 2015. –224 b.

7. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 6-sinfi uchun. – T.: Tasvir, 2017. – 208 b.

8. Mahmudov N. va boshq. Ona tili: Umumta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik / To'ldirilgan va qavta ishlangan 3-nashr. T.: Ma'naviyat 2017.–160 b.

9. Qodirov M., Nc'matov H, Abduraimova M., Sayfullayeva R. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablariniim 8-sinfi uchun darslik. –T.: Cho'lpon, 2014. –144 b.

10. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. –T.: Tasvir, 2010. – 128 b.

11. Mahmudov N. v.b. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik.– T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.– 112 b.

12. Mahmudov N. v.b. Ona tili. O'rta ta'lim muassasalarining 11-sinfi va kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik. – T.: O'zME,

2018.– 112 б.

13. Нейматова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқувчининг мустақил фаолияти (она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар) Т.: РТМ, 2001.

14. Yo`ldosheva D.N. Ona tili ta'limi maqsadining tadrijiy taraqqiyoti. – Toshkent: O`zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2019. – 172 b.

Internet saytlari

1.<http://www.ziyonet.uz>

2.<http://www.thinsan.com>

3.<http://www.literature.uz>

4.<http://www.genhis.philol.ru>

О'қитувчининг kontakt ma'lumotlari:

tel: +998 93-889-76-76

e-mail: nilufar.adizova71@gmail.com.

О'қитувчи bilan haftalik konsultatsiya vaqti:

Payshanba, juma